



O'QUVCHILAR IJTIMOYIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ ERTAKLARINING TUTGAN O'RNI

Davletova Rimajon

*Ajiniyoz nomidagi NDPI "Pedagogika nazariyasi va tarixi" mutaxassisligi
I bosqich magistranti*

Tayanch tushunchalar; *O'quvchilar, xalq ertaklari, ijtimoiy faoliyat, adabiyot, psixologik himoyalanganlik, xayol, ijodiy yondashuv, ertakterapiya.*

Annotatsiya: *Ilmiy maqolada maktab o'quvchilarining ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda xalq ertaklarining tutgan o'rni, uni o'quvchilar bilan birgalikda o'rganish va olib borish usullari keng yoritilgan.*

Yosh avlodni bilimli, dono va axloqli qilib tarbiyalashda ertaklarning o'rni juda muhim. Ertak bola uchun odob-axloq ta'limot va nasihatlardan afzalroq. U ezgulikka ishonch uyg'otadi, qiyin vaziyatda yechim topishga, odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Ertak bolaning adolat, muhabbat, do'stlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurini shakllantiradi. Bu maqolada ertaklar orqali bola psixologiyasiga qanday ta'sir qilish haqida so'z boradi. Ertak bolalarda qiziqish uyg'otish uchun, avvalo, o'zimiz unga to'g'ri munosabatda bo'lishimiz kerak. Bolalar magnitli olam hisoblanib juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydi. Bu bola tarbiyasida ayni shu payt naqadar muhim ekanligining yana bir isbotidir.

Bugungi kunda pedagog-psixologlar bolalarni tarbiyalashning usullaridan biri sifatida ertak terapiyasini juda ko'p ta'kidlamodalar. Ertak terapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash usuli. Ertaklar aqlga ham, yurakka ham faol ta'sir ko'rsatadi: aqlni to'ldiradi, yurakni sezgir qiladi. Maktab o'quvchilarining mard, intiluvchan, diyonatli, iymonli, aqlli bo'lib o'sishini istaymiz. Buning uchun, bolalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan, aqliy salohiyatini o'stiradigan ertaklardan foydalansak ma'qul bo'ladi. Ertaklar bolaga umid bag'ishlaydi. Bola



yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga qanchalik ishonsa, u hayotga shunchalik optimistik ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tarbiyalaymiz, uning ichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilim beramiz, xayolini rivojlantiramiz. Haqiqiy ertakning asosiy belgisi uning yaxshilik bilan tugashi. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik hissini beradi. Ikkinchi tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishini ko'radi. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan, o'zining barcha ijobiy fazilatlarini namoyon etgan qahramonlar esa, albatta, taqdirlanishiga ishonch hosil qilamiz. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko'rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo'lsang, u ham senga shunday javob beradi.

Ertak o'quvchilarning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg'urishga majburlaydi. Bunda hayotga zid kuchlar to'qnashuvi va ularni hal etish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy yondashuvlar rivojlanadi. Aynan xotira bilan uyg'unlashgan yondashuv bolaga turmushda shunday muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to'g'ri va samarali yechim topishga imkon beradi. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini misli ko'rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, lekin bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba'zida ilojisiz bo'lib tuyulgan mushkul vaziyatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o'zi hisoblanadi. Ertaklar o'quvchilardagi muammoni yechishga, tuzatishga zamin yaratadi. Birinchi navbatda ertakni bolaga ixlos bilan aytib berish kerak, shunda bola xalq ijodidan ko'proq ijtimoiy xizmatlar haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo'lsa, natija yaxshi bo'ladi. Bolaga ertak aytib berayotib, unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1. Bu ertak nima haqida?
2. Ertak qahramonlari qanday sifatlariga ega?
3. Nima uchun ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar?



4. Bosh qahramon qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi?

O'quvchilar uchun ertaklar ularning tasavvurini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutq madaniyatini yanada oshiradi.

Bolalardagi tajovuzkorlik kayfiyatini yo'qotish, o'z-o'zini emotsional boshqarish va boshqalar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdan iborat. Buning uchun ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo'lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo'lgan ertak usuli va bolalar bilan ishlash yo'llaridan foydalanishdir. Har bir bola bir yoki boshqa ertakni o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda katta taassurot qoldiradi, ikkinchisi esa uning his-tuyg'ulari qo'zg'almay, yonidan o'tib ketadi. Turmush holatlari daftari yana bir katakka ko'paymaydi, degani emas, u faqatgina bola bunday muammoga, masalan, kuyov va qaynona, kelin va qaynona o'rtasidagi tanlov muammosiga duch kelmaguncha ta'sir kuchiga ega bo'lmaydi. Ertak terapiyasi bu bolani tarbiyalashga kompleks yondashishdir. Ammo agar siz terapiya orqali ta'lim olish jarayonini qismlarga ajratib tahlil qilsangiz, bu ajoyib usul hal qiladigan vazifalarning to'liq ro'yxatini olishingiz mumkin. Ertak terapiyasi bola hissiyoti uchun qiyin narsalarni unga yengil shaklda yetkazish bilan ertak yordamida ishonchli aloqa o'rnatish, unga yaqin odamga aylanish usullaridan biridir. Bolalar uchun ertak terapiyasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantiradi.

O'quvchilar xulq-atvoridagi emotsional buzilishlarni, albatta, o'yinlar, o'yinchoqlar, bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman san'at yordamida ham tuzatish mumkin. Lekin bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu ertak. To'g'ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko'plab muammolar, qo'rquv, o'jarlik kabilarni bartaraf etish, bolada ishonch va iroda shakllantiradi. Ertaklarni nafaqat psixologik terapiyada, balki oila davrasida muntazam qo'llash bolalik davridagi eng iliq tuyg'ularni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Musurmanova O, Bawbekova G “O’zbek xalq pedagogikasi”-T.2000.
2. Jabbarov.I “O’zbek xalqi etnografiyasi”-T.1994.
3. Xoshimov K, Nishanova S ham tagi baslar “Pedagogika tarixi”-T.1996.
4. Saparbaev T “Mektep dogerek jumislarinin’ pedagogikaliq ahmiyeti” No’kis “NMPI Baspasi”-2025.